

## **Hafta davomida 358 nafar fuqaro bilan muloqot o'tkazildi**

Murojaatlar bo'limi xodimlari joriy yilning **21-25 avgust** kunlari Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va ularning hududiy filiallarida hamda xususiy tibbiyot tashkilotlarida imtiyozli yo'llanma bilan davolanib chiqqan 216 nafar bemor bilan tibbiy yordamni baholash, tibbiy yordam sifati va hajmi yuzasidan telemuloqot o'tkazdi.

Natijada imtiyozli yo'llanma bilan davolanib chiqqan **16(7,4%) nafar** fuqaro shifoxonadagi qabul jarayonidan, dori vositalari va jarrohlik amaliyoti uchun o'z hisobidan pul mablag'lari sarflaganligidan, shifokor va hamshiralalar qarovidan hamda ularning muomalasidan, shifoxonadagi oziq-ovqatlar sifati va sharoitlari yuzasidan e'tirozi borligini aniqlandi. Biroq ular bu holatlar bo'yicha Jamg'armaga yozma murojaat qilmasligini bildirdirgan.

Jamg'armaning ishonch telefon (**99 353 93 54, 94 353 93 54**)lariga hafta davomida 142 ta fuqaro murojaat qilgan bo'lsa, shulardan **3(2,1%)tasi og'zaki e'tirozli** murojaat qoldirdi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega fuqarolarga Sog'liqni saqlash vazirligi yuboradigan "**sms**" xabarnoma, jamg'arma faoliyati hamda fuqarolarning shifoxonalar yuzasidan e'tirozli murojaatlari bo'ldi.

Misol uchun, Andijon viloyati Paxtaobod tumanida yashovchi fuqaroning farzandi imtiyozli yo'llanma bilan Bolalar milliy tibbiyot markazida davolanish davrida davolanish sifatidan, Qashqadaryo viloyati Nishon tumanida yashovchi fuqaro imtiyozli yo'llanma bilan Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qarshi filialida imtiyozli yo'llanma bilan davolanish davrida shifoxona sharoitidan, Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumanida yashovchi fuqaro imtiyozli yo'llanma bilan Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasida davolanish davrida davolanish sifati yuzasidan noroziligini bildirdi.

Barcha fuqarolarning murojaati yuzasidan tegishliligi bo'yicha mas'ullarga ma'lumotlar berildi e'tirozli og'zaki murojaatlar o'z vaqtida ijobji hal qilindi.

Surxondaryo, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida yashovchi imtiyozga ega fuqarolardan Jamg'arma ishonch telefoniga kelib tushgan og'zaki murojaatlar xududiy bosh mutaxassislarga beilib, tegishliligi yuzasidan amaliy yordam ko'rsatildi..

Murojaatlar bo'limi xodimlari hafta davomida umumiy 358 nafar fuqaro bilan telefon orqali muloqotlar o'tkazdi.

**Davlat tibbiy sug'urtasi jmg'armasi  
Matbuot xizmati**